

## JINOYATCHILIKKA MOYILLIGI BO'LGAN O'SMIRLAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Shermatov Javohir Sherzodovich**  
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

O'smirlar xulq-atvorida jinoyatga moyillik shakllanishiga ta'sir etadigan turli omillar ta'siridan himoya qilishning psixokorreksion rivojlantiruvchi zamonaviy psixologik mexanizmlari tuzilmasini shakllantirishga doir fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smirlik, jinoyatchilikka moyillik, agressiya va deviant xulq-atvor.

### ABSTRACT

Opinions on the formation of the structure of modern psychological mechanisms of psychocorrective development of protection against the influence of various factors affecting the formation of criminal tendencies in the behavior of adolescents are presented.

**Key words:** adolescence, criminality, aggression and deviant behavior.

### АННОТАЦИЯ

Представлены взгляды на формирование структуры современных психологических механизмов психокоррекционной выработки защиты от влияния различных факторов, влияющих на формирование криминальных тенденций в поведении подростков.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, преступность, агрессия и девиантное поведение.

Mamlakatimizda hozirgi ta'lim siyosatining bosh vazifasi o'quvchilarning fan asoslarini faol va ongli o'zlashtirishini ta'minlashdir. O'zlashtirish hamisha faol aqliy jarayon natijasi bo'lib, odamning bilishiga oid olamdagi xilma-xil noma'lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash bilan belgilanadi. Psixologiya fani nuqtai nazaridan noma'lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash, bilish yoki uni ijodiy o'zlashtirish jarayoni, asosan, uchta yo'nalishga bog'liq bo'ladi. Birinchidan o'zlashtirilayotgan

materialning mazmun-mohiyati o'zlashtiruvchi uchun qay darajada mos va tushunarlilikiga, ahamiyatliligiga va u qanday usulda yetkazilayotganligiga bog'liqdir. Ikkinchidan, ta'lim jarayonini boshqarayotgan mas'ul kishi (o'qituvchi)ning shu sohadagi bilimi va tajribasiga, malaka va mahoratiga, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga uzviy bog'liqdir. Uchinchidan, o'quvchining aqliy taraqqiyoti va tarbiyalanganlik darajasiga, emotsional-irodaviy holatiga, o'qishga nisbatan unda qaror topgan individual psixologik xususiyatlariga, qiziqishi va havaslariga bog'liqdir. Ana shu uchta yo'nalish to'la ta'minlangan ta'lim jarayonidagina samarali o'zlashtirish hosil bo'lishi allaqachonlar rivojlangan mamlakatlar fani tajribasida isbotlangan. Shu bois, mamlakatimiz ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, buyuk ma'naviyatimizni tiklab namoyish etishga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlab zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

Biroq, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan fidoyi insonlar va o'qituvchilar jamoasi har qancha urinmasin, baribir ta'lim jarayonida jinoyat sodir etishga moyilligi bor o'smirlarning uchrab turishi hammani ajablantiradi. Ana shunday tarbiyaviy muammolarni yechishning qanday yo'llari va choralari mavjud? Hozirgi kunda psixolog olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha tarbiyasi qiyin, injiq, o'zi bilganicha ish tutadigan, quloqsiz, xulqida salbiy illat va ko'rinishlar oshkor ifodalanib turadigan bolalarning kelib chiqishida ijtimoiy sabablardan tashqari organizmdagi biofiziologik jarayonlarning kechishiga e'tiborsizlik, pedagogik, psixologik, iqtisodiy, etnomadaniy va hududiy sabablarning ham muhim ta'siri borligi isbotlandi. Ana shu muammolarni o'rganishga yo'nalgan biz olib borayotgan tadqiqotlar natijalarining tahliliga ko'ra O'smirlar tarbiyasida, xulq-atvorida, munosabatlarida, maqsad-intilishlarida nojuya xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va motivlari (turtkilari) har xilligi aniqlandi. Jumladan, shaxsning biofiziologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentning shakllanishidagi qusurlar tarbiyasi qiyin yoshlarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo'shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlar mavjud emasligi, o'smirning intilishiga xos mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti-harakatni izdan chiqaradi. Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy hisslarning yetishmasligi, o'qituvchi, sinf jamoalari, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot, ishyoqmaslik, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni

vujudga kelishiga asos bo'ladi. Shaxsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhim bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar, maktab faoliyatidagi kamchiliklari: o'qitishdagi nuqsonlar, tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi. Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog'atga yetmagan tengqurlarining ta'siri, madaniy-ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham jinoyat sodir etishga moyilligi bor o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

Jinoyat sodir etishga moyilligi bor o'smir o'quvchilarni qayta tarbiyalash uchun quyidagilarga e'tibor berish va nuqsonlarni tuzatib, inson uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarni shakllantirishda kerakli tarbiyaviy – psixologik shart – sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Ontogenez psixologiyasida jinoyat sodir etishga moyilligi bor o'smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasiga (E.G'oziev) quyidagi omillar ta'siri alohida kursatib o'tilgan. Ushbu omillarning faol ta'siri tadqiqotlarimiz tahlillarida ham o'z aksini topdi.

#### 1. Shaxsning biologik nuqsonlari:

- o'zlashtirish va anglashda sezgi organlarining kamchiliklari;
- o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentga xos xususiyatlarning mavjudligi;
- psixopatologik o'jizliklarning ta'siri.

#### 2. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

- aqlning bo'sh o'sganligi va maqsadga muvofiq shakllanmaganligi;
- irodaning zaifligi, jur'at, qat'iylik, o'zini tuta bilish, dadillik va matonatning shakllanmaganligi;
- shaxsda hissiyotning kam rivojlangani, o'zini tuta olmaslik, hissiyotlarni boshqara olmaslik;
- zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi;
- o'smirdagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi.

#### 3. Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar:

- axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar;
- o'smirning o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqatidagi zaifliklar;
- mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar, o'quvsizlik, yoshiga hos bilim, malaka va mahoratning shakllanmaganligi;
- bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar, vaqtdan unumli foydalana bilmaslik.

4. Shaxsning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

- bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar;
- ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarining shakllanmaganligi va yetishmasligi.

5. Maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

- ta'lim jarayonida bilimlar va xatti-xarakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda bolaga e'tiborsizlik va sinfda qoldirish;

- maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar, o'qituvchining o'smirga xayrixoh emasligi, o'quvchining ikkilanishi, o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o'z o'rnini topa olmaslik va boshqalar.

6. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar:

- oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi;
- bolani tarbiyalash bilan bog'liq psixologik qonuniyatlarni bilmaslik, oilada bola tarbiyasi bilan bog'liq munosabatlarda unga amal qilmaslik;

- oilaning buzilishi va oilaviy nizolarning ta'siri;

- ota-ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi;

- oila a'zolari o'rtasida o'z burchi va vazifalarini bajara olmaslik yoki sudlangan odamning uchrashi va uni bola tarbiyasiga ta'siri;

- tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo'li egrilikka) o'rgatishi va hokazo;

- madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning yoshlar tarbiyasidagi kamchiliklari va boshqalar.

Ko'rinib turganidek, jinoyat sodir etishga moyilligi bor o'spirinlarni tarbiyaviy tuzatish yoki ular tarbiyasidagi ana shunday qiyinchilik va muammolarni oldini olish uchun avvalo yoshlar tarbiyasiga e'tiborni bola tug'ilishidan boshlab oilada sog'lom tarbiya muhitini yaratish, ota-ona va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tarbiyaviy-psixologik qonuniyatlar asosida tashkil etish, shundan so'ng esa tarbiyachilar, o'qituvchilar va jamoatchilikning yoshlar o'quv-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonlarga mas'uliyatini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Insoniyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida odamlarning hayot kechirishi, turmush tarzi, o'qishi va mehnat faoliyatida qanchalik afzalliklar yuzaga kelgan bo'lmasin, shu barobarida turli-tuman muammolar ham shakllanayotganligini tan olish zarur. Mazkur muammolarning aksariyati insonlar hayoti va faoliyatiga daxldor bo'lganligi uchun psixologik muammolar hisoblanadi. Shu bois, har bir muammoni yechishda psixologik bilimlarga tayanish, psixolog mutaxassislar maslahatiga amal

qilish yaxshi samara berayotganligi insonlar hayoti va jamiyat taraqqiyotida ko'p bora kuzatilgan (o'z tasdiqini topgan).

Hozirgi davrda tarbiyasida, turmushida muammolar shakllangan insonlar uchun psixologik xizmat ko'rsatishning beshta yo'nalishi amaliyotda keng joriy etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Psixologik maorif va ma'rifat;
2. Psixodiagnostika;
3. Psixoprofilaktika;
4. Psixokorreksiya va psixik rivojlantirish;
5. Psixologik maslahat.

Psixologik xizmat ko'rsatishning mazkur yo'nalishlari psixoterapevtik xarakterga ega bo'lib, insonlar hayoti, turmush tarzi va mehnat faoliyatiga daxldor muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insonlarning turmush tarzida, oilaviy munosabatlarda, ayniqsa, yoshlar hayoti va ta'lim tizimida, umuman, ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida psixologik xizmat ko'rsatish hamda psixoterapevtik jarayonni amalga oshirish ko'p jihatdan har bir inson uchun xos bo'lgan individual psixologik xususiyatlarni o'rganish, milliy-madaniy, milliy-psixologik hamda hududiy shart-sharoitlarni e'tiborga olish bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqotlarimiz maqsadiga ko'ra psixologik xizmat ko'rsatish ob'ektlarini atroflicha o'rganish natijalariga ko'ra, psixoterapevtik yo'nalishlar uchun xarakterli bo'lgan muammolar ko'pincha quyidagi omillar (sabablar) ta'sirida o'spirinlarda shakllanishi kuzatildi:

- o'smirlarga xos zarur sifat va fazilatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi;
- hayotda to'g'ri yo'nalish ololmaganligi;
- o'zida shakllanayotgan kamchiliklarni payqamaslik;
- o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslik;
- o'ziga (o'z imkoniyatlariga) ishonmaslik;
- yon atrofida qilar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlaridan qanoatlanmaslik;
- o'zaro tushunmaslikning kelib chiqishi;
- bezovtalik darajasining oshishi;
- boshqalar faoliyatiga, narsa va voqealar rivojiga to'g'ri baho bera olmaslik;
- odamlar bilan nizolar chiqishiga yo'l qo'yish;
- odamlar bilan o'zaro muomalaga kirishishda uquvsizlik, o'zgalarning faoliyati, munosabati va xatti-harakatlari ta'sirida muammolarning shakllanganligi va boshqalar.

Psixoterapevtik xizmat yo'nalishlari bir-biridan ancha farqliday ko'rinsa-da, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq va uyg'unlashgan bo'lib, birinchi navbatda o'smir shaxsiga

amaliy psixologik yordam ko'rsatish uchun quyidagi muammoli vazifalarni hal qilishga yo'naltirilishi zarur:

-o'smirning o'z hayot yo'lida yuzaga kelgan muammoni va uning sabablarini aniqlashi, tahlil qilib bir qarorga kelishi va uni yechishiga;

-o'smir o'zligini anglashi uchun shaxsga xos sifat va fazilatlarini o'rganishi hamda uni o'zidagilar bilan taqqoslab, psixokorreksiya va psixik rivojlantirishga ehtiyoj sezishiga;

-o'smir o'z atrofidagi odamlar bilan munosabatini o'rganib, xatolarini anglagan holda tushunib tuzatishiga;

-o'smir o'z hayoti davomida yuzaga kelgan muammolarni yechish yo'llarini qidirishi va mutaxassis maslahatiga amal qilishiga;

-muammoni yechish uchun belgilangan qarorni amalda qo'llanilishi va samarasini nazorat qilishiga;

-psixoterapevtik ta'sir jarayonida o'smir shaxsining xulq-atvorida yuzaga kelgan ijobiy o'zgarishlarni muntazam mustahkamlab borishiga.

Xullas, o'smirlar xulq-atvori va hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur tarbiyaviy-psixologik chora-tadbirlar belgilash va ularni amalga oshirish, natijalarni to'g'ri baholash hamda asosli qarorlar qabul qilish bosqichlari, albatta, psixoterapevtik xizmat tashkilotchisining psixologik savodxonligiga va o'qituvchi, o'smirning ota-onasi hamda jamoatchilikning muntazam hamkorlikda ishlashiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Farfieva K.A. Ommaviy axborot vositalari ta'sirida talabalarda ijtimoiy tasavvurlar shakllanishining o'ziga xosligi (Televidenie misolida): Dis. ... psixol. fan. nomzodi. – T.: O'zMU, 2005. – 148 b.

2. Вильданова Д. О проблемы психология агрессивного поведения. // Pedagogik ta'lim j. – 2006. - № 4. – Б. 98-100.

3. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalar-ning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march. 2022 442-447.

4. Olimov. L.Ya., Nazarov A.M. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tafakkur avlodi", 2020. – 496 b.

5. E. G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi" Toshkent – 2010 yil.